

XALAQRO INVESTITSIYA HUQUQIDA “INEVSTITSIYA” TUSHUNCHASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7876706>

Ummatov Muhsinjon Xasanboy o`g`li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik”

fakulteti talabasi,

muhsinbekummatov699@gmail.com

+998930011947

Annotatsiya.

ushbu maqolada jahon maydonida “investitsiya” so`ziga berilgan ta`riflar va izohlar ko`rib chiqiladi, investitsiya faolyatini tartibga soladigan va shu faoliyat davomida yuzga keladigan nizolarni hal qilish uchun tashkil qilingan xalqaro tashkilotlarning investitsiya tushunchasiga bergen tariflari yoritilgan.

Kalit so`zlar.

investitsiyalar, ISCID, investor, investitsiyalash manbalari, investitsiya turlari,

Maqola ob`ekti Xalqaro investitsiya huquqida foydalaniladigan investitsiya tushunchasidir.

Ushbu ishning maqsadi xalqaro investitsiya huquqida “investitsiya” tushunchasini xalqaro umume`tirof etilgan tashkilotlarning nazdida ta`riflari va qo`llanilish usullari va qanday faolyat investitsiya faolyati ekanligini va qanday huquqiy maqomga ega ekanligi, investitsiya faolyatini xalqaro tartibga solish usullarini tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quydaqi masalalarni hal qilishimiz kerak:

- Xalqaro maydonda investitsiya atamasiga berilgan ta`riflar;
- Xalqaro investitsiyalarning tarixi va rivojlanish jarayonini ko`rib chiqish;
- Xalqaro investitsiya huquqi tushunchasining xususyatlarni ochib berish;
- Investitsyaning dunyo davlatlarida qanday tartibga solinishi va xalqaro investitsiya subyektlarining o`zaro aloqalari.

Avvalambor, investitsiya so`zining ma`nosi nima ekanligiga keyin esa uning tarixiy rivojlanishiga to`xtalib o`tganimiz maqsadga muofiq bo`ladi degan fikrdaman. **Investitsiya** bu – foyda (daromad) olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadida, davlat yuridik va jismoniy shaxslar (investeorlar) tomonidan

cheklangan imkonyatlardan samarali foydalanib, cheklanmagan ehtiyojini qondirish uchun iqtisodiyotning turli sohalariga ma'lum muddatga sarflangan barcha turdag'i boyliklardir⁵⁶. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi "Investitsiyalar va Investitsiyalar faolyati" to'g'risidagi 598-qonuni 3-moddasida investitsiyaga quydagicha ta'rif beradi:

Investitsiyalar – investor tomonidan foya olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faolyat turlari obyektlariga tavakkalchilik asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan inteliktual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo`lib ular quydagilarni o`z ichiga olishi mumkin:

mablag`larni, shu jumladan pul mablag`larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog`ozlarni;

ko`char va ko`chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

intellekktual mullaka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjat+lar, ko`nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tajribaga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni⁵⁷.

Bundan tashqari, bizda quydagicha savol vujudga kelishi ta`biy investitsiya bor ekan uni kim kiritadi? Investitsiya kiritgan subyekt qanday ataladi? Shu jumladan xalqaro va mahalliy hujjatlarda unga qanday ta'rif berilgan? Biz bu masalani investitsiya so`ziga xalqaro miqyosdagi tashkilotlar tomonidan yoki boshqa davlatlar hukumati bergen izohlardan keyin yoritib berishga harakat qilamiz.

Xalqaro investitsion nizolarni hal qilish markazi (ICSID) 1965-yilda Vashington konvesiyasi ostida tashkil etildi. Bu markaz davlat va investorlar o`rtasidagi nizolarni hal qilish maqsadida tashkil etilgan.

Ushbu konvensiyada investitsiya o`zi nima degan savolga "Salini" testi orqali javob berish kerakligini takisdlashgan. Investitsiyaga to'g'ri ta'rifni aniqlash uchun arbitorlar ICSID Konvensiyasini to`g'ri talqin qilishlari talab qilinadi. Yaxshiyamki, xalqaro hamjamyat Vena konvensiyasida belgilab qo'yilgan shartnomalarni to`g'ri

⁵⁶ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

⁵⁷ O'RQ-598-SON 25.12.2019. Investitsiya va investitsiya to'g'risida.

talqin qilishga erishdi. Vena konvensiyasi 1969-yilda imzolangan va 1980-yilda kuchga kirgan. Xalqaro hamjamyat konvensiya loyhasini xalqaro shartnomalar soni va ko`laming ko`payishiga javoban, ularga nisbatan yagona qoidalar to`plamini ta`minlash maqsadida ishlab chiqdi. ICSID konvensiyasida "investitsiya" so`zini talqin qilish maqsadida, shartnomaning eng muhim qismi 31-modda bo`lib, u shartnomani talqin qilishning umumiy qoidalarini o`z ichiga oladi.

31-modda talab qiladiki, sudlar va hay`atlardan shartnomalrni "xolis niyatda" talqin qilishlarini, shartnoma shartlariga ularning kontekstda va uning ob`yekti va maqsadi nuqtai nazaridan berilishi kerak bo`lgan odatiy ma`noga muofiq. Vena konvensiyasi matn sifatida tavsiflangan narsalarini ham aniqroq belgilaydi. Vena konvensiyasida muqaddima va qo`shimchlar sharhlash maqsadida matinning bir qismi sifatida tasniflanishi aniq takidlangan. Konvensiya shuningdek, kontekst "shartnomani qo`llash bo`yicha tomonlarning kelishuvini belgilovchi har qanday keyingi amalyotni" o`z ichiga olishini ko`rsatadi.

Salini arbitorlar foydalanishi kerak bo`lgan aniq to`rt-yondashuvli testni taqdim etadiki, har ikkala kompaniya haqiqatdan ICSID konvensiyasi talablariga mos keladigan investitsiya qilganligini aniqlaydi. Test talab qiladi: (1) pul yoki kapital kontributsiya qilinishi; (2) ma`lum bir vaqt qaysiki, loyha implemetatsiya bo`lgunigacha; (3) tavakkalchilik elementi bo`lishi; (4) ma`lum kapital kiritish mezon davlat iqtisodiga. Bu testni rivojlantirish maqsadida, arbitorlar turli xil asoslarni sinab ko`rdi. Ular xalqaro investitsiyalar bilan bog`liq eski qarorlarni ko`rib chiqdilar va ularning sinovlarining dastlabki uchta qismi ushbu qarorlarning qatorlarida yashirin bo`lgan xalqaro huquq tushunchalaridan kelib chiqqanligini aniqladilar⁵⁸.

Endi yuqoridaq investor kim degan savolga javob berishga harakat qilsak, birinchi navbatda O`zbekiston Respublikasi investitsiya bo`yicha qonuniga murojat qilamiz:

Investor - foyda olish maqsadida investitsiya faolyati obyektlariga o`zining mablag`larine va (yoki) qarz mablag`larni yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faolyati subyekti⁵⁹.

Investor - Birlashgan Qirollikdagi huquqiy ma`nosи bu - investor o`z fuqoroligiga ega davlatning jismoniy shaxsi ya`ni fuqorosi yoki yuridik shaxsi

⁵⁸ Chicago journal of international law 6-1-2014

⁵⁹ O`RQ-598-SON 25.12.2019. Investitsiya va investitsiya faolyati to`g`risida

bo`lishi mumkin. Shunga qaramasdan, zamonaviy dunyoda ko`p fuqorolik yoki ko`p millatli yuridik shaxslar murakkablik kasb etadi⁶⁰.

Lexisnexis.co.uk Birlashgan qirollik veb-sayti tomonidan "Investitsiya" so`zi nimani anglatadi degan savolga quydagicha javob berilgan: investitsiya deganda, odatda, qabul qiluvchi davlat hududidagi mulk yoki fiozlarning har qanday turi tushuniladi. Bu ko`pincha ko`chmas mulk yoki mahalliy kompanyadagi ulushlar kabi "aniq" mulkdan tashqari (vazyatga qarab) shartnoma bo`yicha huquqlar, intelektual mulk huquqlari va xususiy kreditlar kabi boshqa manfaatlarga ham taalluqlidir. "Investor" tushunchasida bo`lgani kabi, zamonaviy tijorat dunyosida nima nima investitsiya sifatida tasniflanadi va nima emasligi murakkab savol bo`lishi mumkin. "Investitsiya" ta`rifi BITlar orasida farq qiladi.

Ana endi, investitsiya huquqining evolutsiyasi jarayoniga to`xtalsak, qadim zamonlardan beri odamlar chet elga sarmoya kiritish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun ketishgan. Yevropalik savdogarlar mahalliy jamoalar bilan savdo qilish uchun Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasiga bora boshlaganlarida, mahalliy qonunlar ularga nisbatan qo'llanilmagan, chunki ular o'z davlatlarining qonunlariga bo'ysungan holda harakat qilishgan. Grotius va Vattel⁶¹ kabi ilk olimlar bunday pozitsiyani qo'llabquvvatlaganlar. Ushbu dalil, bu tadbirkorlar qayerga bormasinlar, o'z millati bo'lgan mamlakat qonunini o'zlar bilan olib yurishgan va shuning uchun mahalliy qonunlarga bo'ysunmagan degan taxminga asoslanishadi⁶². Shuningdek, mahalliy qonun past darajada bo'lganligi sababli, u o'z mamlakatining yuqori qonunchiligiga bo'ysunadigan chet elliklarga nisbatan qo'llanilmagan. Yana bir olim Sutton ta'kidlaganidek, Yevropa davlatlarining Osiyo va Afrika davlatlari bilan tuzgan ko'plab shartnomalarida yevropaliklar o'z davlatlarining yurisdiksiyasi ostida qolishlari va ularning konsullari o'z vatandoshlari ustidan yurisdiksiyani amalga oshirishlari shart edi. Shunday qilib, xalqaro investitsiyalar huquqi rivojlanishining dastlabki yillarida hech bir davlat chet el aktivlarini ekspropriatsiya qilishi yoki milliylashtirishi mumkin emasligini tushunishgan edi. Davlatlar xalqaro minimal standart tushunchasidan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlaridan qochish uchun sabab sifatida milliy qonunlarga murojaat qila olmadilar. Rivojlanishning keyingi bosqichidagina mustaqil davlatlar soni ortib borgach, davlatlar chet elliklarning mol-mulkini tor

⁶⁰ Lexisnexis.co.uk

⁶¹ E de Vattel, Millatlar qonuni 174 (J Chitty ed, 1852), n 1, 457.

⁶² H Grotius, De Jure Belli ac Pacis Tres (rev edn, 1946), qayta nashr etilgan (1925) 3(2) The Classics of International Law, 385 (F. Kelsey, trans), TM Franck, Fairnessda keltirilganidek xalqaro huquq va institutlarda (Oxford, Clarendon Press, 1995), 457, n 11.

shartlarda va tovon to'lash sharti bilan ekspropriatsiya qilishlari mumkinligi qabul qilindi⁶³.

Xalqaro investitsiya huquqini xalqaro huquqiy tartibga solish hamda rivojlanish evolutsiyasining uchta davri mavjud. Bular:

Birinchi davr XX asrning birinchi yarmi ya`ni 1920-yillar davriga to`g`ri keladi. Sotsialistik mamlakatlarning paydo bo`lishi xususiy mulkning to`liq natsionalizatsiya qilinishiga olib keldi. Shu bilan birga, nizolar xorijiy investorlar va ularning davlatlari tomonidan qo`zg`atiladi, ular milliylashtirish aktlarini noqonuniy deb topdilar va tovon to`lashni talab qildilar. Ekspropratsiya qiluvchi davlatlar, ayni paytda, tovon to`lashdan bo`yin tovladilar. Natsionalizatsiya paytida xorijda joylashgan mulkning sobiq egalari tomonidan tortib olinishi munosabati bilan boshqa nizolar yuzaga keldi. Ichki doktrinada davlat bir tomonlama suveren choralarini amalga oshirgan taqdirda qabul qiluvchi davlat va xorijiy investorning huquqiy munosabatlariga oid nuqtai nazarlarini ishlab chiqdi. "Davlat suvereniteti prinsipidan kelib chiqib, davlat mulkka egalik qilish bilan bog`liq barcha masalalarni, shu jumladan, mulkni milliylashtirish masalasini tartibga solishning mutlaq huquqiga ega bo`ladi."

Ikkinci davr, "Davlat va xorijiy investor" deb nomlanadi. Ko`plab Osiyo, Lotin Amerikasi va Afrika davlatlari o`z mustaqilligi va iqtisodiy erkinliklarini qo`lga kiritish munosabati bilan 1950-1970-yillar davomida capital import qiluvchi davlatlarda investitsiya kodekslari va qonunlari qabul qilindi. Nizolar qo`yilgan kapitalni milliylashtirish yoki shartnomalarni bir tomonlama bekor bolishi sababli yuzaga keldi. Xorijiy investorlarning davlatlari shartnomalarning investitsiyani qabul qiluvchi davlatlar tomonidan bir tomonlama bekor bolishi va bu holatni xalqaro huquq normalarining buzilishi deb baholadilar. Bu davrda quydagi konsepsual normalar belgilandi:

- qabul qiluvchi davlat va xorijiy investor o`rtasidagi investitsiya nizosi xususiy huquq nizolariga kiradi;
- shaxsnинг xalqaro jamoat javobgarligi nazariyasi rad etildi;
- davlatning tabiiy resurslar ustidan suverenitetini tan oldi.

Shuningdek, ekspropratsiyaning umumiy tamoyillari ham ishlab chiqildi:

- davlat ekspropriatsiyani qonuniy asosda, jamiyat manfaatlarini ko`zlab, tovon to`lagan holda, kamsitmasdan amalga oshirish huquqiga ega; davlatning investitsiya shartnomasini jamiyat manfaatlarini ko`zlab, tovon to`lagan holda bir tomonlama tartibda bekor qilish va bekor qilish huquqini tan oldi.

⁶³ Journal of New Century Innovations

1980-yillar birinchi yarmidan boshlab, uchinchi davr Sharqiy Yevropa bozorining ochilishi munosabati bilan qabul qiluvchi davlat va xorijiy investor o`rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish mavzusi yangi ahamiyat kasb etayotgan davrga to`g`ri keldi. Bu holat kapital eksport qiluvchi davlatlar tomonidan siyosiy risklarni kamaytirish kafolatlari orqali investitsiyalarni sug'urtalash bo'yicha milliy dasturlarni yaratishga olib keldi. Xalqaro miqyosda muhim voqeа 1988-yil 11- oktyabrda investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlikni tashkil etish to`g`risidagi konvensiyaning imzolanishi bo`ldi.

Ana endi Xalqaro investitsiya huquqining o`ziga xos tomonlariga e`tiborimizni qaratsak, maqasadga muofiq bo`lgan bo`lar edi. Mohiyatan, xalqaro investitsiya huquqi sarmoyachi jismoniy yoki yuridik shaxslarning o`z davlatidan boshqa bir davlat hududidagi qanaqadir sohaga kapital yoki texnika kiritish hissoblanadi.

Xalqaro investitsiya huquqining o`ziga xos tomonlaridan ba`zilari quydagilardan iborat:

Birinchidan, bu qonunda biz faqat chet el mulkining rejimi va himoyasi, bundan tashqari, xalqaro-huquqiy vositalar bilan ham gaplashamiz. Ayrim davlatlarning milliy huquqida xorijiy mulkchilik rejimi bir chetda qolmoqda, biroq bu rejim asosiy va albatta, xalqaro munosabatlardan befarq emas. Ikkinchidan, xalqaro investitsiya huquqi doirasida chet el xususiy mulkning rejimi va himoyasi izohlanadi. Chet el davlat mulkiga kelsak, u xalqaro huquqda davlat institutlari, diplomatik immunitetlar tomonidan himoya qilinadi, garchi uslubiy jihatdan xalqaro mulk huquqi doirasida chet davlat mulkining huquqiy rejimini uzrli sabablarga ko'ra ko'rib chiqish mumkin bo'ladi. Uchinchidan, xalqaro investitsiya huquqi umuman chet el mulki haqida emas, balki xorijiy investitsiyalar haqidadir. Shu sababli, ushbu tushunchaning ta'rifi haqida savol tug'iladi. Investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish bo'yicha ikki tomonlama xalqaro shartnomalarda investitsiyalar odatda juda keng tushuniladi, mohiyatan har qanday mulkiy manfaatlar, har qanday turdagи narsalar, huquqlar va manfaatlar va h.k⁶⁴.

Xalqaro investitsiya huquqining o`ziga xosliklaridan yana biri shundaki, **xalqaro Investor** investitsiya kiritayotgan davlatining qonunlaridan ba`zi hollarda chetlab otishi yoki nizo yuzaga kelganda xalqaro arbitrajlar oeqali ham himoyalanishi mumkin. Shu jumladan, **investor** o`zi kiritayotgan investitsiyasining kafolatini olishi ham mumkin.

⁶⁴ <http://www.newjournal.org/>

Yuqorida bergen bergen fikirlarimizni quydagilar bilan tasdiqlashimiz mumkin, mana misol uchun 1965-yilgi Vashington konvensiyasini olishimiz mumkin. Bu konvensiya asosan xorijiy investitsiyalarda yuzga keladigan nizolar bo`yicha joriy qilingan hissoblanadi. Bu konvensiya ostida ICSID (International Centre for Settlement of Investment Disputes) tashkil topdi va bugungi kungacha mingdan ortiq investitsion nizolarni ko`rib chiqdi. Bu konvensiyaning asosiy maqsadi investorlarni mulkini milliylashtirilishidan yoki noqonuniy egallanishidan saqlash va davlatlar milliy sudlaridan qochish imkonini beradi.

Xalqaro investitsiya huquqining eng muhim o`ziga xosliklaridan biri bu sohaning prinsiplari deb bemalol aytishimiz mumkin. Misol uchun **Milliy rejim** prinsipini oladigan bo`lsak, bu rejimga asosan davlat (host state) ya`ni investitsiya qabul qilib oluvchi davlat xorijiy investorga o`z mahalliy investorlaridan yoki ularning faolyatiga taqdim etadiganidan ko`ra noqulay bo`lgan, diskriminatsiya xususiyatidagi shart-sharoitlar belgilashni taqiqlovchi doktirina sifatida shakllangan⁶⁵. Endi esa yana bir mashhur prinsiplardan biri **eng qulay shartlar rejimi (MFN)** asosida esa, qabul qiluvchi davlat shartnoma tarafi bo`lgan boshqa davlat investorlari yoki ularning investitsiyalariga muayyan sohada uchunchi davlat investorlari va ularning investitsiyalari uchun nazarda tutilganidan kam bo`lmagan qulay shartlar taqdim etish majburyatini oladi⁶⁶. Ushbu rejim asosida investorlar uchun teng raqobat muhtini yaratish, diskirmimatsiyani oldini olish, investorlar huquqini kafolatlash maqsadlari qabul qiluvchi davlatlarning mahalliy investorlarga tadbiqan emas, balki xorijiy investorlarga nisbatan amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan **xulosa** qilib shularni aytish mumkinki, Xalqaro investitsiya huquqida investitsiya tushunchasi bu katta ma`no anglatadi. Bu sohadan yiroq bo`lgan ba`zi insonlar tushunadigan kimningdir qaysidir sohaga kiritadigan puli (capital) degan tushunchadan ancha kengroq ekanligi ko`rinadi. Bugungi kunda Xalqaro inestitsiya huquqi sohasi anchagina o`z huquqiy tarmoqlarini yarata oldi deyish xato bo`lmaydi menimcha, sababi, dunyoda ko`plab davlatlar o`rtasidagi shartnomalar va kelishuvlarni aynan investitsiya sohasida ko`rishimiz mumkin. Bundan tashqari xalqaro miqyosdagi konvensiyarning qabul qilinishi va bu sohada yuzaga keladigan nizolarni hal qilish uchun tashkil qilingan xalqaro arbitrajlar va huquqiy prinsiplarning tashkil qilinganligi Xalqaro investitsiya sohasining davlatlar miqyosida qanchalik ahamyatga ega ekanligini ko`rsatib beradi desak

⁶⁵ Norfadhilah Mohamad Ali, Appropriate comparator in national treatment under international investment law: relevance of GATT/WTO.

⁶⁶ OECD(2004) “Most-Favoured-Nation Treatment in International investment Law”, OECD Working Papers on International Invesment, 2004/02. – 2p.

xato bo`lmasa kerak. Xalqaro investitsiya huquqida **investitsiya** tushunchasi bugungi kunda ancha kengayganini yuqoridagi malumotlar asosida bilib olishimiz mumkin. Shunday bo`sada, xalqaro maydonada ko`plab investitsiya tushunchasiga berilgan tavsiflar bor, bu o`z navbatida har xil davlatlarda turlicha tushuniladi bu esa ayni paytda, ular o`rtasida diskirminatsiyaga keltirishi mumkin. To`g`ri dunyoda bunday o`zagrishlar bo`lishiga qaramasdan, bunday tub islohotning potentsial yutuqlari vazifani qiyinlashtirishga arziydi va xorij investitsiyalari qonunchiligi bilan bog'liq ko`plab muammolarni hal qilishi mumkinligining og'irligini hisobga olgan holda xalqaro investitsiya huquqi rejimi doirasida hal qilinishi kerak bo`lgan masalalar va keng ko'lamli masalalarni hisobga olgan holda, global ijtimoiy qadriyatlarni himoya qilish uchun xorijiy investitsiyalarning bir yurisdiksiyadan boshqasiga o'tishini ta`minlash masalasi ham yetarlicha tartibga solinishi maqsadga muofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR RO`YHATI:

1. OECD(2004) "Most-Favoured-Nation Treatment in International Invesment Law", OECD Working Papers on International Invesment, 2004/02. – 2 p.
2. E de Vattel, Millatlar qonuni 174 (J Chitty ed, 1852), n 1, 457.
3. H Grotius, De Jure Belli ac Pacis Tres (rev edn, 1946), qayta nashr etilgan (1925) 3(2) The Classics of International Law, 385 (F. Kelsey, trans), TM Franck, Fairnessda keltirilganidek xalqaro huquq va institatlarda (Oxford, Clarendon Press, 1995), 457, n 11.
4. <http://newjournal.org>
5. Norfadhilah Mohamad Ali, Appropriate comparator in national treatment under international invesment law: relevance of GATT/WTO.
6. Jounal of New Century nnovations
7. www.lexisnexis.co.uk
8. O`RQ-598-SON 25.12.2019. Investitsiya va investitsiya faolyati to`g`risida.